TOSHKENT VILOYATI OHANGARON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 21-oktabr | 325-10-134-Q/24 | Ohangaron tuman hokimligi

Ohangaron davlat o‘rmon xo‘jaligiga qarashli hududlarda nazorat kuzatuv maskani va shlagbaumlar o‘rnatishga ruhsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-yanvardagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bo‘lishni tartibga solishning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 13-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 28-maydagi “Yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va yong‘inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 21/24-42-sonli majlis bayoni, Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 24-iyundagi “2024-yil 1-iyuldan 1-avgustga qadar viloyat hududida “Yong‘in xavfsizligini taminlash bo‘yicha dolzarb 30 kun” tadbirini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 244-10-0-F/24-sonli farmoyishi qabul qilingan.

Mazkur qaror va farmoyishlar ijrosini ta’minlash maqsadida, tumanda o‘rmonlarni muhofaza qilish, o‘rmonlardan madaniy marifiy rekratsion maqsadlarida foydalanuvchilarning doimiy nazoratini olib borish va mavsumda o‘rmon yong‘inlarini oldini olish maqsadida hamda Ohangaron Davlat o‘rmon xo‘jaligining tuman hokimi nomiga 2024-yil 31-maydagi 8/553-sonli xatini inobatga olib hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Ohangaron Davlat o‘rmon xo‘jaligining tuman hokimi nomiga 2024-yil 31-maydagi 8/553-sonli xatini inobatga olgan holda Ohangaron davlat o‘rmon xo‘jaligiga qarashli bo‘lgan hududlarda turistlar va mahalliy aholi tomonidan madaniy hordiq olish vaqtlarida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni

oldini olish maqsadida nazorat kuzatuv maskanlari va shlagbaumlar o‘rnatishga ruhsat berilsin.

2. Nazorat kuzatuv maskanlari va shlagbaumlar o‘rnatiladigan hududlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ohangaron Davlat o‘rmon xo‘jaligi (K.Salimov), nazorat kuzatuv maskanlari va shlagbaumlar o‘rnatish hamda o‘rmonda yong‘in holatlarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqqan holda tizimli ishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

Shuningdek, kuzatuv maskanlari biriktirilgan xodimlar Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-sentabrdagi 278-son qarorining, 1-ilovasi, 4-bandida ko‘rsatilgan talablar asosida ish faoliyatini olib borishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Shoqosimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.M.Madirimov**

Ohangaron tuman hokimining
2024-yil 21-oktabrdagi
325-10-134-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron davlat o‘rmon xo‘jaligiga qarashli hududlarda nazorat kuzatuv maskanlari va shlagbaumlar o‘rnatiladigan hududlar RO’YXATI

T/r	Hudud nomi	Nazorat hududi raqami
1.	Ovjaz bo‘limi	14-nazorat hududi
2.	Lashkerak bo‘limi	16-nazorat hududi
3.	Ertosh bo‘limi	19-nazorat hududi
4.	Yangiobod bo‘limi	20-nazorat hududi